

## MILLIY-AXLOQIY QADRIYATLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA ETNOPEDEGOGIKA MANBALARI FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

**Komilova Xurshida Toxirovna**

**Andijon davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim"  
kafedrasi, P.f.b.f.d professor.**

**Toshpo'latova Sohibaxon Ulug'bek qizi**

**Andijon davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti,  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi  
sohibaxontoshpolatova268@gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishi bugungi globallashuv sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim masalalariga bag'ishlangan. Maqolada etnopedagogika manbalari, ya'ni xalq og'zaki ijodi (ertaklar, maqollar, dostonlar), milliy an'analar, urf-odatlar va marosimlarning o'quvchilar dunyoqarashini boyitishdagi pedagogik imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi etnopedagogik materiallarni umumta'lim maktablarining o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat. Ishda milliy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirishning bosqichma-bosqich mexanizmlari, jumladan, dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda xalq o'yinlari va buyuk mutafakkirlarning axloqiy o'gitlaridan foydalanish usullari taklif etilgan. Shuningdek, etnopedagogika vositalari orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, kattalarga hurmat, halollik, to'g'rilik hamda jamoaviylik kabi fazilatlarini shakllantirishning samarali metodlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** *milliy-axloqiy qadriyatlar, etnopedagogika, tarbiya texnologiyasi, xalq og'zaki ijodi, pedagogik mexanizm, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ajdodlar merosi, urf-odatlar, milliy an'analar, o'quvchi shaxsi.*

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash darajasini yuksaltirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi **"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni** hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi** qarorlarida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab qo'yilgan.<sup>1</sup>

Shu bilan birga, xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari, odob-axloq me'yorlari va tarbiya usullarini o'zida mujassam etgan **etnopedagogika** manbalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot xurujlari kuchaygan hozirgi davrda o'quvchilarni yot g'oyalardan himoya qilishda etnopedagogik materiallarni zamonaviy o'quv texnologiyalariga integratsiya qilish ma'naviy immunitetni shakllantirishning asosiy omilidir.

Milliy tarbiya va etnopedagogika masalalari pedagog olimlarimiz tomonidan turli jihatlardan o'rganilgan. Xususan, **K. Hoshimov** va **S. Nishonova** o'zbek pedagogikasi tarixini tadqiq etgan bo'lsalar, **O. Musurmonova** o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish masalalariga to'xtalgan. Shuningdek, **M. Inomova** va **A. Munavvarovlar** oila va maktab hamkorligida milliy an'analardan foydalanish metodikasini ishlab chiqqanlar. Biroq,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

etnopedagogika manbalarini aniq texnologik yondashuvlar (modulli o'qitish, loyihalash metodi) asosida dars jarayoniga olib kirish mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy tajribasi, urf-odatlar, an'analari, xalq og'zaki ijodi namunalari va ijtimoiy-madaniy merosi yosh avlod tarbiyasida muhim pedagogik manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, etnopedagogika xalqning tarbiyaviy tajribasini ilmiy jihatdan o'rganib, uni zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etishni nazarda tutadi. Etnopedagogik manbalar orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarga sodiqlik kabi sifatlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Etnopedagogika manbalari turlarining vujudga kelishini ijtimoiy hayot taqozo qiladi. Chunki voqelikning o'zi voqealarga, obrazlarga boy bo'lishi bilan birga, xalq ijodiyoti oldiga uni g'oyaviy-tarbiyaviy va estetik mohiyatini idrok etgan holda biror shaklda ifodalashni zaruratga aylantiradi. Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashi afsona va dostonlarni, tabiat kuchlari oldidagi ojizligi esa so'z magiyasi (afsun)ga sig'inishni paydo qildi. Demak, voqelikning muayyan xarakteri xalq og'zaki ijodida o'ziga xos ifoda shaklini vujudga keltirishga xizmat qildi.

Etnopedagogik asarlar janrlari o'z ijodkorlari faoliyati bilan ham bog'liq. Agar topishmoq hamda maqol singari turlar ommaviy xu susiyatga ega bo'lsa, doston, og'zaki drama, ertak, askiya kabilar maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Ammo, mazkur turlarga xos quyidagi tamoyillarni ta'kidlab o'tish lozim:

- a) Etnopedagogika manbalari pedagogik xususiyatlarining mushtarakligi;
- b) Manbalar janrlararo o'zaro ta'sir, birbiriga muvofiqlik va bir-birini boyitish xususiyatlari;
- c) Har bir turning vujudga kelishida ikkinchi turning manba sifatida xizmat qilishi – genetik aloqa;
- d) Bir turdagi asarning boshqa bir tur tarkibida uchrashi;
- e) Bir turdagi asarning yana bir necha boshqa turlar tarkibida uchrashi va boshqalar.<sup>2</sup>

Etnopedagogika manbalari — bu xalqning asrlar davomida saralangan, hayot sinovlaridan o'tgan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarbiya xazinasidir. Ular quyidagilardir:

Bu manbalar o'quvchining nutqini o'stirish bilan birga, uning ongiga axloqiy qoliplarni singdiradi.

**Maqollar:** "Ona yurtning — oltin beshiging" (Vatanparvarlik), "Mehnat, mehnatning tagi rohat" (Mehnatsevarlik), "Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda" (Odob-axloq).

**Ertaklar:** "Ur to'qmoq", "Zumrad va Qimmat". Bu ertaklar orqali o'quvchilar yaxshilik va yomonlik, halollik va tekinxo'rlik o'rtasidagi farqni anglaydilar.

**Dostonlar:** "Alpomish" yoki "Go'rog'li" dostonlari orqali mardlik, or-nomus va oilaga sadoqat kabi oliyjanob tuyg'ular o'rgatiladi.<sup>3</sup>

Ushbu fikrlarga tayanib aytish mumkinki, dostonlar, maqollardagi vatanparvarlik g'oyalari yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

**Hashar:** Bu an'ana o'quvchilarda jamoaviylik, o'zaro yordam va birdamlik hissini shakllantiradi.

<sup>2</sup> Etnopedagogika [Matn]: darslik / X. Ismoilova, M. To'raboyeva. – Toshkent: «Nurafshon business», 2022. 32-bet

<sup>3</sup> Madayev O. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi*. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 160 b.

**Salomlashish odobi:** "Assalomu alaykum" deyish va o'ng qo'lni ko'ksiga qo'yib so'rashish orqali qarshisidagi insonga nisbatan hurmat ko'rsatish texnologiyasi o'rgatiladi.

Xalq o'yinlari nafaqat jismoniy, balki irodaviy tarbiya vositasidir.

**"Oq terakmi, ko'k terak":** Jamoada ishlash va mas'uliyatni his qilishni o'rgatadi.

**"Chillak":** Diqqatni jamlash va aniqlikka o'rgatadi.

**Kurash:** Milliy g'urur, mardlik va halol g'alaba qozonish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Sharq uyg'onish davri namoyandalarining asarlari etnopedagogikaning yozma manbalari hisoblanadi.

**Yusuf Xos Hojib ("Qutadg'u bilig"):** Komil inson qanday bo'lishi kerakligi haqidagi ilk pedagogik asar.

**Alisher Navoiy ("Mahbub ul-qulub"):** Turli kasb egalarining axloqi va insoniy fazilatlar haqidagi o'gitlar.

**Abdulla Avloniy ("Turkiy guliston yoxud axloq"):** Tarbiyani "yo hayot — yo mamat, yo najot — yo halokat" masalasi sifatida o'rta qo'yishi.<sup>4</sup>

**Kulolchilik, zardo'zlik, duradgorlik:** Bu manbalar o'quvchilarda nafosat (estetik) tarbiyasini shakllantiradi. Har bir naqsh va buyum ortida xalqning sabr-toqati va go'zallikka bo'lgan intilishi yotadi.

Yuqorida A.Avloniyning ta'kidlab o'tilgan olovli da'vati o'sha davrdagi millatning ijtimoiy-siyosiy holatidan kelib chiqqan bo'lsa-da, u bugungi kun uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Avloniy bu yerda tarbiyani shunchaki shaxsiy ish emas, balki davlat va millatning mavjudligi yoki yo'q bo'lib ketishini belgilovchi strategik omil darajasiga ko'taradi. Bu esa xalq og'zaki ijodi namunalarida, xususan, qahramonlik dostonlarida uqtirilgan 'el-yurt manfaati shaxsiy manfaatdan ustun' degan asriy qadriyatning ilmiy-pedagogik ifodasidir.

Shu bilan birga, qadriyatlar asosida o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda etnopedagogika manbalaridan foydalanish, ularni darslar va mashg'ulotlarda qo'llash ularni qiziqtiribgina qolmay, balki bilimni ham mustahkamlaydi.

Maqol – arabcha bo'lib, «so'z» degan ma'noni bildiradi. Uni «otalar so'zi» ham deyдилar. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, ba'zan to'g'ri, ba'zan ko'chma ma'nodaifodalanadi. Maqol ibratli so'zdir. Shunday so'zki, so'zga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta'sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo'ladi. Kimki uni ko'p ishlatsa, o'shaning nutqini shirali deyдилar va diqqat bilan eshitadilar. Maqolda ifodalangan pedagogik g'oyalar alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan bo'ladi. Unda hayo tiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U o'z shakliga ko'ra ixcham, mukammal, lekin ommabop bo'ladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yo'nalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, ma'naviy-axloqiy e'tiqodini, turmush va mehnat me'zonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi.

Topishmoq – bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o'quvchining ixtiyoriga qoldiradigan o'yin bo'lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi. U kontseptsiyani tavsiflovchi darajada bo'rttirish, teskari o'zgartirish va o'zgartirish orqali yaratilgan. Bu ibora " so'roq gap " bo'lishi shart emas. Topishmoqlar bir necha so'zdan tashkil topgan gap shaklida ham, juftlik yoki bayt shaklida ham bo'lishi mumkin. Ko'p topishmoqlar

<sup>4</sup> Abdulla Avloniy *Turkiy Guliston yoxud axloq*. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – 96 b.

qofiyada holida keladi. Topishmoqlarni ba'zan "topmacha", "matal", "jumboq" deb ham atashgan.

Xulosa qilib aytganda, **etnopedagogika manbalari** – bu shunchaki o'tmish merosi emas, balki zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning milliy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi eng hayotiy va ta'sirchan pedagogik vositadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ajdodlar o'gitlarini ta'lim jarayoniga tizimli (texnologik) integratsiya qilish orqali o'quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki mustahkam **ma'naviy immunitet** va **vatanparvarlik** tuyg'usini shakllantirish mumkin.

Etnopedagogikadan foydalanish texnologiyasining samaradorligi shundaki, u quruq nasihatgo'ylikdan voz kechib, bolani xalqning jonli an'analari, mantiqiy topishmoqlari va axloqiy mezonlari asosida **faol fikrlashga** va **to'g'ri qaror qabul qilishga** o'rgatadi. Binobarin, milliy qadriyatlarimizni zamonaviy pedagogik metodlar (interfaol o'yinlar, loyihalash) bilan uyg'unlashtirish — komil insonni tarbiyalashning eng qisqa va ishonchli yo'lidir. Etnopedagogika manbalari asosida tarbiyalangan o'quvchi nafaqat o'z millatining munosib davomchisi, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham chuqur anglaydigan, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs bo'lib kamol topadi. Ushbu texnologiyani ta'lim tizimiga keng joriy etish milliy pedagogikamizning ustuvor strategik vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni / "Qunun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son\
2. Etnopedagogika [Matn]: darslik / X. Ismoilova, M. To'raboyeva. – Tosh kent: «Nurafshon business», 2022. – 180 b.
3. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – T.: O'qituvchi, 1975. – B. 110–115.
4. Husayinova Z. O'zbek topishmoqlari, Topishmoq. 1966.
5. Qoraboyev U. O'zbek xalq o'yinlari. – T.: San'at, 2001.
6. Zunnunov A. Xalq pedagogikasida aqliy tarbiya. // Xalq ta'limi, 1994-yil, 3–4-sonlar.
7. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. O'zbek xalq maqollari. 2001. 8-15 b.